



UDK:37.015.3

*Mo'minaxon RAXIMOVA,
Samarqand davlat universiteti dotsenti*

SamDU professori, f.f.d A.Aliyev taqrizi asosida

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ПРОБЛЕМЕ ОРИЕНТАЦИИ НА ПРОФЕССИОНАЛЬНУЮ КАРЬЕРУ СТУДЕНТОВ

Аннотация

В данной статье рассматривается изучение вопроса выбора карьеры узбекскими учеными и их отношение к этому вопросу, выбор критериев для системы выбора карьеры, факторы, влияющие на выбор карьеры, а также вопросы ориентации студентов на карьеру и обучения их свободному выбору карьеры. В статье также рассматриваются научно-теоретические и практико-методические аспекты отбора критериев фактора отношения к выбору профессии, а также аспекты их исследования.

Ключевые слова: Профессия, выбор карьеры, профориентация, образование, воспитание, реформа, учитель, ученик, инновации.

PSYCHOLOGICAL APPROACH TO THE PROBLEM OF GUIDANCE ON STUDENTS' PROFESSIONAL CAREER

Annotation

This article examines the study of the issue of career choice by Uzbek scientists and their attitude to this issue, the selection of criteria for the career choice system, factors influencing career choice, as well as issues of student orientation to a career and teaching them to freely choose a career. The article also examines the scientific-theoretical and practical-methodological aspects of the selection of criteria for the attitude factor to the choice of a profession, as well as aspects of their study.

Key words: Profession, career choice, career guidance, education, upbringing, reform, teacher, student, innovation.

O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISH MASALASIGA PSIXOLOGIK YONDASHUV

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek olimlari tomonidan kasb tanlash masalasining o'rganilishi va bu masala xususida munosabatlari, kasb tanlash tizimi mezonlarining tanlanishi, kasb tanlashga ta'sir qiluvchi omillar yoritilgan bo'lib, unda o'quvchilarni kasbga yo'naltirish, ularni erkin kasb tanlashga o'rgatish masalalari yoritilgan. SHuningdek maqolada kasb tanlashga munosabat omili mezonlari tanlanishining ilmiy-nazariy va amaliy-uslubiy jihatlarini hamda ularni tadqiq qilishning jihatlarini o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Kasb, kasb tanlash, kasbga yo'naltirish, ta'lim, tarbiya, islohot, o'qituvchi, o'quvchi, innovatsiya.

Kirish. Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki kunlaridan o'quvchilarning kasbga to'g'ri yo'naltirilishini asoslab borishga qaratilgan talaygina pedagogik – psixologik ilmiy izlanishlar, fundamental tadqiqotlar olib borildi, qo'lga kiritilgan empirik ma'lumotlar qaytadan tahlil qilindi va muayyanbir xulosaga kelish uchu nasos bo'ldi. Albatta, olib borilgan bu tahlillar keng ma'nodagi ijtimoiy shaxsni rivojlantirish jarayonining muhim tomoni hisoblangan «Ongli ravishda kasb tanlashga tayyorgarlik», «Kasb – hunar tanlashga yo'nalganlik», «Kasb tanlashga u yoki bu munosabatni shakllantirish» tushunchalarini ilmiy – nazariy tadqiq qilish, bu boradagi muammolar ko'lamiga jiddiy e'tiborini qaratishni ham taqozo etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish, ulardagi kasbiy munosabat tizimini tahlil qilish, kasbiy konsultatsiyalar shaxs xossalari, xususiyatlari, sifatleri tashxis metodlarini ishlab chiqish psixologiya fanining markaziy vazifalaridan biridir. Respublikamizda tashxisning bunday metodikalarini yaratishda ma'lum tajriba to'plangan. Masalan, o'quvchilarni psixologik o'rganish metodikasi (V.A.Tokareva S.SH.Aytmetova) shaxsni o'rganish metodlari (M.G.Davletshin tahriri ostida B.R.Qodirov va K.B.Qodirovlar ishlab chiqqan) o'quvchilarni kasb tanlash vazifalarini hal etish uchun tashxislash metodlari, R.Z.Gaynutdinov rahbarligida yaratilgan turli kasblar uchun asosli professiogrammalardir.

“Inson-kasb-ishlab chiqarish muhiti” tizimi o'z-o'zicha ko'p bosqichli, ko'p qirrali, juda murakkab bo'lib,

respublikamizda ushbu tizimda davlat miqyosida inson omiliga g'amxo'rlik qilinadi. Kadrlar tayyorlash sohasida davlat siyosati har tomonlama rivojlangan shaxs fuqaroni uzluksiz ta'lim tizimi orqali tarbiyalashni ko'zda tutadi.

Shunday qilib, insonning kasbiy shakllanish muammolarini o'rganish ham fundamental, ham amaliy tadqiqotlarning dolzarb vazifalaridan sanaladi. R.Z.Gaynutdinov rahbarligida kasbiy tiklanishning turli muammolariga bag'ishlangan qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. D.N.Arziqulovning dissertatsiya ishida Agrar universitet talabalarining kasbiy shakllanish bosqichlari psixologik xususiyatlarini o'rganishga asosiy e'tibor qaratildi.

SH.B.Saparovning o'qituvchilarining shaxsiy-kasbiy xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotida ta'kidlanadiki, o'qituvchilik kasbining shakllanishi va rivojlanishi ularning kasbiy faoliyatida amalga oshadi ya'ni namoyon bo'lish darajasi va sifati o'qituvchilarning yoshi va ish stajiga uzviy bog'liqdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Y.M.Asadovning dissertatsiyasida umumta'lim maktabi o'qituvchisining malaka oshirish tizimidan kasbiy-shaxsiy o'sish yo'nalishini belgilovchi psixologik xususiyatlari o'rganiladi. Bu bosqichda mahoratni mustahkamlash, kasbiy tiklanish samadorligi ko'p jihatdan psixologik xususiyatlarga bog'liq. Bundan tashqari tadqiqot ishida maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy Dasturi talabalaridan kelib chiqqan holda kasb mahorati rivojlanishi omillari sifatida o'quvchining individual-

psixologik xususiyatlarini o'rganishning dolzarbligi ilgari surilgan. Unda o'quvchida kasb mahoratining shakllanishi yaxlit komponentlarini tasniflovchi "o'quvchining kasb mahorati", "o'quvchining individual-psixologik xususiyatlari", "o'quvchining psixologik tipi" kabi tushunchalarni belgilovchi o'qituvchining individual-psixologik xususiyatlarini psixologik tiplarda integrallashuvi va ularning malaka oshirish tashkiliy shakllarini tanlash motivatsiyasiga ta'sirini izohlovchi individual-psixologik xususiyatlarning o'qituvchi kasb mahoratini rivojlantirish omillari sifatida ahamiyatini ochib beruvchi ilmiy asoslangan ma'lumotlar keltirilgan.

Psixologiya faniga yirik hissa qo'shgan mashhur olim P.I.Ivanov kasb tanlash motivlari, ta'limda individual munosabatni ro'yobga chiqarish, ta'lim jarayonini faollashtirish masalalariga bag'ishlangan asarlarida kasbiy motivlar, ularning darajalari to'g'risidagi ma'lumotlar tahlil qilingan. Ayniqsa, uning qiziqish, motiv, motivatsiya talqiniga oid mulohazalari, g'oyalari o'z davrida muhim ahamiyat kasb etgan.

Tahlil va natijalar. I.M.Krasnoboev axloqiy tushunchalarni, ma'naviy ideallarni shakllantirish masalalarini tadqiq qilish jarayonida motivlar va motivatsiya qanday rol o'ynashi to'g'risida yangi psixologik ma'lumotlar tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'lgan. Uning fikricha, ideallarni shakllantirish xulq motivlarisiz amalga oshishi mumkin emas, chunki har bir harakat reguliyator funksiyasiga o'sib o'tishi mumkin.

E.G.G'oziev ham o'z ilmiy tadqiqotlarida kasbiy motivlar to'g'risida ish olib borgan. Bu borada E.G.G'ozievning "Kasb tanlashning psixologik asoslari", "Shaxs va kasb tanlash", "Kasb psixologiyasi", "O'quv faoliyatini boshqarish" singari asarlari muhim ahamiyatga ega. Olimning motivatsiyaga bag'ishlangan bir talay asarlari muammoning metodologik, nazariy jabhalarini tekshirishga keng imkon beradi. E.G.G'oziev shunday yozadi: Kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining asosiy maqsadi eng avvalo, individga, o'z qiziqish qobiliyati va imkoniyatlarini to'liq anglash, hoxish-istaklarini amalga oshirishning vosita va usullarini to'g'ri belgilash hamda mustaqil qarorga kelishi uchun imkoniyat va zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat.

Uning komil ishonch bilan ta'kidlashiga qaraganda motiv va motivatsiyasini hisobga olmasdan turib ko'zlagan maqsadga erishib bo'lmaydi. Olimning ilmiy ishlari mohiyatidan mazkur masalaga nisbatan munosabati va yondashuvini aniqlash imkoniyati mavjud. Kasb tanlashga tayyorlikning psixologik jihatlari va kasbiy diagnostika muammolariga doir tadqiqot ishi K.B.Qodirov tomonidan olib borilgan. Bunda asosiy qoida kasbiy yo'nalganlik umuman moyilliklarda, qiziqish va qadriyatlarda ifodalanib, kasbiy rivojlanishning mazmuniy tomoni sanaladi. Kasb tanlash chog'ida psixologik tayyorgarlik yoki yetuklik kasbiy o'zini o'zi anglashning muhim omili bo'lib, kasbni to'g'ri tanlashga yordamlashadi va kuch, barqarorlik, keskinlikda namoyon bo'ladi, bu ongliklik, mustaqillik bilan ta'minlanadi va kasbiy tanlovning formal-dinamik jihatiga kiradi.

G.B.Shoumarovning aksariyat izlanishlarida hayot va faoliyatda munosabat motivatsiyaning roli yaqqol ko'zga tashlanadi. O'quvchilarga individual yondashish, ularni oilaviy

turmushga tayyorlash, insonni inson tomonidan idrok qilishni motiv va motivatsiyasiz tasavvur qilish mumkin emas. Uning shogirdlari tadqiqotlarida ham xuddi shu g'oya asosiy tayanch tushunchasi sifatida namoyon bo'ladi.

V.M.Karimovning ilmiy izlanishlarida kasb tanlash motivi va motivatsiyasi muammosiga ijtimoiy psixologik nuqtai nazardan yondashish o'z ifodasini topgan. Ayniqsa, bu masala ayollar va yoshlar muammosini ochib berish, milliy g'oya va milliy mafkuraga yondashish nazariyalarida o'z ifodasini topgan. Muloqot masalasiga bevosita va bilvosita yondashish jarayoniga munosabatida muallifning shaxsiy qarashlari yaqqol namoyon bo'ladi.

SH.R.Barotovning ko'pgina izlanishlarida motiv va motivatsiya masalalari bilvosita tahlil qilingan. O'quv fanlariga o'quvchilarning munosabatlari, mehnatga ijobiy munosabatni shakllantirish, ta'limni faollashtirish, o'quvchilarning individual-tipologik xususiyatlarini hisobga olish masalalari shular jumlasidandir.

O.E.Hayitov tadqiqotlarida kasbiy kasb motivlari, tadbirkorlik kasbi faoliyati motivatsiyasining etnopsixologik xususiyatlari o'rganilgan.

R.Z.Gaynutdinovning doktorlik dissertatsiyasida o'qituvchi pedagogik faoliyati komponentlari realizatsiyasi darajasi, shaxsiy xossalari, omillari tahlili asosida kasbiy faoliyatning samaradorligini belgilovchi quyidagi mezonlarini ajratish mumkin. Ular:

- shaxsiy-professional komponentlikning o'z-o'ziga nisbati;
- o'zini o'zi dolzarblashga intilish;
- emotsional barqarorlik va kasbiy identifikatsiya;
- o'z-o'ziga hurmat va "Men" ning ichki muvofiqligi;
- dinamizm, yutuqlarga erishish ehtiyoji, ektovertlik, atrofda qilarning o'ziga nisbatan pozitiv munosabatini kutish;
- internallik (ichki nazorat darajasi).

Xulosa. R.Z.Asomova "Kasb tanlash motivatsiyasi va uning dinamikasi" nomli ilmiy izlanishida kasb tanlash motivlari mexanizmlari, ularning birlamchi manbalari, harakatlantiruvchi kuchlari, dinamikasi va shaxsning individualligi masalalari atroficha ochib berilgan. Shuningdek, kasbiy motivlarning mutaxassisni kasbiy tayyorgarligi o'rtasidagi bog'liqlik, hamda kasbiy va o'quv motivlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik masalalari ham keng doirada tadqiq qilingan.

Kasb tanlashning psixologik masalalari F.Temurov, texnik kasblariga yo'naltirish motivatsiyasi Q.Turg'unov, B.Boymuratov, o'qituvchilik kasbini tanlash motivlari N.Majidov, kitobxonlik qiziqishlari M.Muratxonova, o'quv motivlari F.Haydarov, I.B.Suvanov, E.Quljonovlarning ilmiy izlanishlarida tadqiq etilgan.

Shunday qilib, yurtimiz psixologlarining kasbiy tiklanishining turli bosqichlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlari tahlilida rivojlanishning shaxsiy omillari, shaxsning kasbiy faoliyati doirasida tiklanishining hal qiluvchi rolga asosiy e'tibor qaratiladi. Yuqoridagi fikrlardan ko'rinadiki, respublikamiz psixologlari tomonidan kasbga yo'naltirish, kasb tanlash masalalariga doir bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan.

ADABIYOTLAR

1. Arziqulov D.N. kasbiy kamolotning psixologik o'ziga xos xususiyatlari Avtoreferat psixologiya fanlari nomzodi. –Toshkent 2002.-22 b
2. Asadov Yu.M. Individual'no-psixologicheskie osobennosti uchitelya kak faktora razvitiya professionalizma Avtoref. dis. ... kand. psixol. nauk. – Tashkent, 2007.-25 s.
3. Barotov SH.R. O'smirlarda kasb tanlash tizimi va uning ijtimoiy - psixologik asoslari. «Pedagogik mahorat» jurnali. Buxoro, 2003, 4-son, 33-37 betlar.

4. Davletshina M.G. «Psixologicheskie aspekty sovershenstvovaniya proforentatsionnoy raboty sredi molodiji» Toshkent 1982 yil
5. Karimova V. Psixologiya. O‘quv qo‘llanma.- T.: A. Qodiriy nomli xalq merosi nashriyoti, 2002 – 205 b.
6. Saparov SH. B. Lichnostno-professionalnye osobennosti преподавателей spetsialnykh distsiplin srednix spetsialnykh, professionalnykh uchebnykh zavedeniy. Avtoref. dis. ...kand. psixol. nauk. – Tashkent, 1999. – 22 s
7. G‘oziev E.G‘., Mamedov K.Q.. Kasb psixologiyasi. – T.: O‘ZPFITI, 2003.